ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

DEYKSIS HODISASINING TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Hamroyev Sardor Akmaljon o‘g‘li
SamDChTI, Tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23504905

Annotatsiya. Ushbu maqolada deyksis hodisasining zamonaviy tilshunoslikdagi talqini, uning semantik va pragmatik tabiati hamda nutqiy muloqot jarayonidagi funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Deyktik birliklarning ma’nosi kommunikativ vaziyat, so‘zlovchi va tinglovchi munosabati, nutq sodir bo‘layotgan makon va zamon hamda diskurs kontekstiga bog‘liq holda shakllanishi yoritiladi. Shaxs, makon, zamon, diskurs va sotsial deyksisning o‘ziga xos jihatlari misollar asosida izohlanadi. Shuningdek, deyktik markaz, referensiya, kontekst, pragmatik ma’no va deyktik proyeksiya tushunchalarining o‘zaro aloqasi ochib beriladi. Deyksisning nutq ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatni shakllantirish, kommunikativ masofani belgilash hamda so‘zlovchining pragmatik maqsadini yuzaga chiqarishdagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: deyksis, pragmatika, deyktik birlik, kontekst, referensiya, deyktik markaz, shaxs deyksisi, makon deyksisi, zamon deyksisi, diskurs deyksisi, sotsial deyksis, pragmatik ma’no.

Til insonning borliqni idrok etishi, uni konseptuallashtirishi va boshqa shaxslarga yetkazishining muhim vositasi hisoblanadi. Nutqiy muloqot jarayonida lisoniy birliklarning ma’nosi faqat ularning lug‘aviy yoki grammatik xususiyatlari asosida shakllanmaydi. Muayyan birlikning qanday ma’no anglatishi ko‘p hollarda uning kim tomonidan, kimga, qayerda, qachon va qanday kommunikativ vaziyatda qo‘llanganiga bog‘liq bo‘ladi. Til va kontekst o‘rtasidagi ana shunday uzviy munosabatni yaqqol aks ettiruvchi hodisalardan biri deyksisdir.

“Deyksis” atamasi yunoncha deixis – “ko‘rsatish”, “ishora qilish” ma’nolariga borib taqaladi. Tilshunoslikda ushbu tushuncha nutq vaziyatining muayyan komponentlariga ishora qiluvchi lisoniy birliklar tizimini anglatadi. Deyktik birlikning referentini aniqlash uchun faqat gapning grammatik va semantik tuzilishini bilish yetarli emas; nutq vaziyati ham hisobga olinishi lozim. Masalan, men hozir shu yerda ishlayapman gapidagi men, hozir va shu yerda birliklarining aniq referensiyasini kontekstdan tashqarida belgilab bo‘lmaydi. Men kim ekanligi so‘zlovchiga, hozir qaysi vaqt ekanligi nutq momentiga, shu yerda esa so‘zlovchi turgan yoki nazarda tutayotgan makonga bog‘liq.

Deyksis nazariyasining shakllanishida K.Byuler, Ch.Fillmor, J.Layonz, S.Levinson, J.Yul kabi olimlarning qarashlari alohida o‘rin tutadi. K. Byuler deyktik maydon haqidagi nazariyasida nutq vaziyatining markazini “men–bu yerda–hozir” koordinatalari bilan bog‘laydi [Bühler K.]. Ushbu yondashuv keyinchalik deyktik markaz tushunchasining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Deyktik markaz nutqiy hodisani idrok etishda boshlang‘ich koordinata vazifasini bajaradi va odatiy muloqotda u so‘zlovchi, uning turgan joyi va nutq sodir bo‘layotgan vaqt bilan belgilanadi.

J.Layonz deyksisni tilning kontekstga bog‘liq referensial xususiyatlari bilan aloqador hodisa sifatida ko‘rib, uning shaxs, makon va zamon bilan bog‘liq ko‘rinishlariga alohida e’tibor qaratadi [Lyons J.]. S.Levinson esa deyksisni til strukturasi bilan nutq konteksti o‘rtasidagi munosabatni bevosita namoyon etuvchi pragmatik hodisalardan biri sifatida baholaydi [S.C.Levinson, 54-96].

Uning tasnifida shaxs, zamon va makon deyksisi bilan bir qatorda diskurs hamda sotsial deyksis ham alohida turlar sifatida ajratiladi. Bunday yondashuv deyksisni faqat predmet, shaxs, vaqt yoki joyni

ko‘rsatish vositasi sifatida emas, balki keng qamrovli pragmatik kategoriya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Deyksisning pragmatik tabiati, avvalo, deyktik birliklarning interpretatsiyasi kontekstga bog‘liqligida namoyon bo‘ladi. Bir xil lisoniy birlik turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha referentga ishora qilishi mumkin. Masalan, men olmoshi har safar uni talaffuz qilayotgan shaxsni ifodalaydi. So‘zlovchi almashishi bilan menning referenti ham o‘zgaradi. Demak, ushbu olmoshning doimiy semantik xususiyati “so‘zlovchiga ishora qilish” bo‘lsa-da, uning konkret referenti nutq vaziyati asosida aniqlanadi. Shu sababli deyktik birliklarda semantika va pragmatika o‘zaro uzviy munosabatda namoyon bo‘ladi.

Shaxs deyksisi nutqiy muloqot ishtirokchilarining kommunikativ rollarini ifodalash bilan bog‘liq. Birinchi shaxs so‘zlovchini, ikkinchi shaxs adresatni, uchinchi shaxs esa odatda bevosita so‘zlovchi yoki tinglovchi rolida bo‘lmagan shaxs va obyektlarni ko‘rsatadi [S.C.Levinson, 68-73].

O‘zbek tilidagi men, biz, sen, siz, u, ular kabi olmoshlar shaxs deyksisining asosiy vositalaridir. Biroq ularning pragmatik imkoniyatlari grammatik shaxs kategoriyasi bilan chegaralanmaydi. Masalan, biz olmoshi ayrim vaziyatlarda so‘zlovchi va tinglovchini bir guruhga birlashtirsa, boshqa holatda tinglovchini o‘z tarkibiga kiritmasligi mumkin. Shu jihatdan inklyuziv va eksklyuziv referensiya pragmatik talqin uchun muhimdir.

Shaxs deyksisida sen va siz shakllari ham alohida pragmatik ahamiyatga ega. O‘zbek tilida siz nafaqat ko‘plikni, balki hurmat, rasmiylik va ijtimoiy masofani ham ifodalaydi. Sen shakli esa yaqinlik, norasmiy munosabat yoki muayyan vaziyatlarda yuqoridan quyi kommunikativ munosabatni ko‘rsatishi mumkin. Demak, shaxs deyksisi ishtirokchilarni ko‘rsatish bilan bir qatorda, ularning o‘zaro ijtimoiy va psixologik munosabatlarini ham namoyon qiladi.

Makon deyksisi nutq ishtirokchilariga nisbatan obyekt yoki hodisaning joylashuvini belgilaydi. Bu yerda, shu yerda, u yerda, bu, shu, o‘sha kabi birliklar o‘zbek tilida makon deyksisining faol vositalari hisoblanadi. Ingliz tilidagi here, there, this, that birliklari ham shu vazifani bajaradi. Makon deyksisini izohlashda yaqinlik va uzoqlik munosabati muhim o‘rin tutadi. Bu kitob birikmasida obyekt so‘zlovchiga nisbatan yaqin sifatida konseptuallashtirilishi mumkin, o‘sha kitob birikmasida esa masofa yoki oldindan ma’lum bo‘lgan referentga ishora kuchliroq namoyon bo‘ladi.

Makon deyksisidagi yaqinlik va uzoqlik faqat jismoniy masofani ifodalamaydi. Nutqda psixologik, emotsional yoki ijtimoiy masofa ham makon deyksisi vositalari orqali konseptuallashtirilishi mumkin. So‘zlovchi o‘ziga ma’qul yoki yaqin bo‘lgan hodisani konseptual jihatdan “yaqinlashtirishi”, salbiy baholangan obyektni esa “uzoqlashtirishi” mumkin. Shu tariqa makon deyksisi baholash va pragmatik pozitsiyalash vositasiga ham aylanadi.

Zamon deyksisi voqea-hodisaning nutq momentiga nisbatan vaqt koordinatasini belgilaydi. Hozir, bugun, kecha, ertaga, avval, keyin kabi birliklarning mazmunini aniqlashda nutqning qachon yuz berganini bilish talab etiladi. Masalan, ertaga uchrashamiz jumlasidagi ertaga so‘zining aniq qaysi sanaga tegishli ekanligini faqat nutq sodir bo‘lgan vaqtni bilgan holda aniqlash mumkin. Shu sababli zamon deyksisining asosiy markazi nutq momentidir.

Zamon deyksisi leksik birliklar bilan bir qatorda grammatik zamon shakllari orqali ham namoyon bo‘ladi. Fe’l zamonlari hodisani nutq momentidan oldin, nutq momenti bilan bir vaqtda yoki undan keyin sodir bo‘luvchi jarayon sifatida konseptuallashtirishga imkon beradi. Biroq grammatik zamon bilan real vaqt o‘rtasidagi munosabat har doim ham mutlaq emas. Ayrim kommunikativ vaziyatlarda hozirgi zamon shakli o‘tmishda sodir bo‘lgan voqeani jonli tasvirlash yoki kelajakdagi hodisani muqarrar jarayon sifatida ko‘rsatish uchun qo‘llanishi mumkin. Bu esa zamon deyksisining pragmatik imkoniyatlari grammatik kategoriyadan kengroq ekanligini ko‘rsatadi.

Diskurs deyksisi nutq yoki matnning o‘z qismlariga ishora qilish bilan bog‘liq. So‘zlovchi yoki muallif yuqorida aytilganidek, quyida ko‘rib chiqamiz, bu fikr, mazkur masala, keyingi misolda kabi birliklardan foydalanib, adresatning e’tiborini diskursning muayyan qismiga yo‘naltiradi [S.C.Levinson, 85-89].

Diskurs deyksisi ayniqsa ilmiy, rasmiy, publitsistik va akademik matnlarda muhim bo‘lib, matn qismlarining mantiqiy bog‘lanishi va adresatning axborotni izchil qabul qilishiga yordam beradi.

Diskurs deyksisini oddiy anaforik referensiyadan farqlash zarur. Anaforada lisoniy birlik avval tilga olingan referentga qayta murojaat qilsa, diskurs deyksisida ko‘rsatish obyekti nutqning o‘zi yoki uning muayyan qismi bo‘lishi mumkin. Masalan, Bu juda muhim xulosa jumlasidagi bu oldingi butun fikr yoki argumentga ishora qilishi mumkin. Shunday qilib, diskurs deyksisi matnning ichki tuzilishini shakllantiruvchi pragmatik vosita vazifasini bajaradi.

Sotsial deyksis esa muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, o‘zaro munosabati, yoshi, kasbiy mavqeyi, hurmat darajasi va kommunikativ masofasini lisoniy vositalar orqali ifodalaydi [S.C.Levinson, 89-94].

O‘zbek tilida sen - siz qarama-qarshiligi, aka, opa, ustoz, domla, janob kabi murojaat shakllari sotsial deyksisning yorqin ko‘rinishlaridir. Ularning tanlanishi faqat referentni belgilash bilan cheklanmaydi, balki so‘zlovchining adresatga bo‘lgan munosabati haqida ham pragmatik axborot beradi.

Deyksis hodisasini o‘rganishda deyktik markaz tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Odatda deyktik markaz so‘zlovchining “men - bu yerda -hozir” koordinatalariga asoslanadi. Biroq nutqda ushbu markaz boshqa shaxs, makon yoki zamonga ko‘chirilishi mumkin. Bu hodisa deyktik proyeksiya sifatida talqin qilinadi [C.J.Fillmore, 1977]. Masalan, badiiy asarda muallif voqealarni qahramon nuqtayi nazaridan tasvirlaganda o‘quvchi makon va zamonni aynan shu personajning koordinatalari asosida idrok etishi mumkin. Natijada real so‘zlovchining deyktik markazi vaqtincha boshqa konseptual markaz bilan almashtiriladi.

Deyktik proyeksiya kundalik muloqotda ham uchraydi. Masalan, telefon orqali suhbatda so‘zlovchi: Men hozir u yerga boraman deyishi mumkin. Bu vaziyatda u yer so‘zlovchi uchun uzoq, tinglovchi uchun esa “bu yer” bo‘lishi mumkin. Ba’zan so‘zlovchi tinglovchining perspektivasini qabul qilib, o‘z harakatini adresat nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Bunday hodisalar deyksisning egotsentrik xususiyati mutlaq emasligini, kommunikativ jarayonda perspektiva o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Deyksisning pragmatik mohiyatini referensiya hodisasidan ajratib bo‘lmaydi. Referensiya nutqdagi lisoniy birlikning muayyan shaxs, predmet, hodisa yoki tushunchaga bog‘lanishini ifodalaydi. Deyktik referensiyaning o‘ziga xosligi shundaki, referent ko‘pincha kommunikativ vaziyat asosida aniqlanadi. U keldi jumlasida u olmoshining kimga ishora qilayotganini grammatik tuzilishning o‘zi belgilab bermaydi. Buning uchun suhbat ishtirokchilarining umumiy bilimlari, oldingi diskurs va konkret vaziyat haqidagi ma’lumot zarur.

Deyktik birliklarning interpretatsiyasida presuppozitsiya va umumiy kommunikativ bilim ham katta ahamiyatga ega. So‘zlovchi ayrim ma’lumotlarni bevosita bayon qilmay, ularni tinglovchiga ma’lum deb hisoblaydi. Masalan, U yana bu yerga keldi gapidagi u, yana va bu yerga birliklarini to‘liq anglash uchun tinglovchi referent, avvalgi voqea va makon haqida muayyan bilimga ega bo‘lishi kerak. Shu sababli deyksis nutq ishtirokchilarining umumiy bilim fondi bilan uzviy bog‘liq.

Deyktik vositalar pragmatik strategiyalarni amalga oshirishda ham faol ishtirok etadi. Ayniqsa, biz olmoshi so‘zlovchi bilan adresat o‘rtasidagi yaqinlikni shakllantirish, ularni bitta ijtimoiy yoki kommunikativ guruhga birlashtirish imkoniyatiga ega. Aksincha, ular shakli muayyan shaxs yoki guruhni so‘zlovchi va tinglovchidan ajratib ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, shaxs deyksisi orqali “o‘zimiz” va “boshqalar” o‘rtasidagi pragmatik chegaralar shakllantiriladi.

Deyksis adresant va adresat o‘rtasidagi kommunikativ masofani tartibga soluvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi. So‘zlovchi tanlagan olmosh, murojaat shakli, ko‘rsatish vositasi yoki makon ifodasi uning suhbatdoshga nisbatan pozitsiyasini ko‘rsatadi. Ayniqsa, rasmiy va norasmiy muloqot o‘rtasidagi farqlar sotsial va shaxs deyksisida yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek nutq madaniyatida yoshi katta yoki ijtimoiy mavqeyi yuqori shaxsga siz deb murojaat qilish pragmatik me’yorlardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy kommunikatsiya shakllarida, xususan, internet va ijtimoiy tarmoqlar diskursida deyksisning yangi pragmatik imkoniyatlari kuzatiladi. An’anaviy yuzma-yuz muloqotda bu yer va hozir tushunchalari nisbatan aniq jismoniy makon va nutq vaqtiga bog‘langan bo‘lsa, raqamli muloqotda kommunikativ makon virtual tus oladi. Bu yerda muhokama qilamiz, hozir onlaynman, shu postda, quyidagi havolada kabi ifodalarda makon va diskurs deyksisi bir-biriga yaqinlashadi. Natijada deyktik markazning nafaqat jismoniy, balki virtual va diskursiv shakllari ham yuzaga keladi.

Deyksisning pragmatik tahlili badiiy, siyosiy, reklama, ilmiy, pedagogik va media diskurslarni o‘rganishda ham muhimdir. Deyktik vositalar yordamida muallif yoki so‘zlovchi adresat bilan yaqinlik yaratishi, muayyan voqea yoki shaxsni kommunikativ markazga olib chiqishi, ayrim hodisalarni esa markazdan uzoqlashtirishi mumkin. Shuning uchun deyksis faqat ko‘rsatish kategoriyasi emas, balki diskursda perspektiva, baholash, kommunikativ pozitsiya va adresatga ta’sirni shakllantiruvchi vosita sifatida ham qaralishi lozim.

Deyksisning semantik va pragmatik tomonlarini mutlaq ravishda bir-biridan ajratish qiyin. Deyktik birliklarning umumiy semantik vazifasi mavjud bo‘lsa-da, ularning konkret referenti va kommunikativ qiymati kontekstda aniqlanadi. Masalan, bu ko‘rsatish olmoshi umumiy jihatdan yaqin yoki kommunikativ jihatdan faollashtirilgan obyektga ishora qilishi mumkin, lekin aynan nimaga ishora qilayotgani nutq vaziyatiga bog‘liq. Shuning uchun deyksis semantika bilan pragmatika tutashadigan asosiy lingvistik hodisalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, deyksis til va kontekst o‘rtasidagi uzviy aloqani namoyon etuvchi murakkab lingvopragmatik hodisadir. Deyktik birliklarning referensiyasi so‘zlovchi, tinglovchi, nutq vaqti, makoni, diskurs muhiti va muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy munosabatlari asosida shakllanadi. Shaxs, makon, zamon, diskurs va sotsial deyksis kommunikativ vaziyatning turli koordinatalarini lisoniy shaklda ifodalaydi. Deyktik markaz va deyktik proyeksiya esa nutq ishtirokchilarining perspektivasini belgilash va o‘zgartirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, deyksisni faqat ishora qiluvchi til birliklari majmui sifatida emas, balki referensiyani tashkil etuvchi, kommunikativ munosabatlarni boshqaruvchi, ijtimoiy masofani ifodalovchi hamda so‘zlovchining pragmatik intensiyasini yuzaga chiqaruvchi muhim mexanizm sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bühler K. Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. – Jena: Gustav Fischer, 1934.
2. Fillmore C. J. Lectures on Deixis. – Stanford: CSLI Publications, 1997.
3. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983.
4. Levinson S. C. Deixis // The Handbook of Pragmatics / L. R. Horn, G. Ward (eds.). – Oxford: Blackwell, 2006.
5. Lyons J. Semantics. Vol. 1–2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977.
6. Yule G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
7. Cruse A. A Glossary of Semantics and Pragmatics. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.

8. Birner B. J. Introduction to Pragmatics. – Chichester: Wiley-Blackwell, 2013.
9. Diessel H. Demonstratives: Form, Function and Grammaticalization. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.